

**MAVZU: ICHKI ISHLAR ORGANLARINI PROFESSIONAL TUZILMAGA
AYLANTIRISHDA AXBOROT TEXNALOGIYALARINING O'RNI**

*Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi kursanti
Mirzayev Fazliddin Ilyosjon o'g'li*

Annotatsia: Hozirgi vaqtda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hayotning barcha jabhalarida foydalanib kelinmoqda, shu jumladan huquq-tartibot organlari faoliyatida ham. Jinoyatchilik bilan kurashish amaliyotining rivojlanishi, xavfsizlik va jamoat tartibini ta'minlash – ichki ishlar organlari oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish, aksariyat holatlarda ular faoliyatining axborot va tahliliy ta'minlanganlik darajasi bilan belgilanishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikatsiya, axborot-texnologiya, ichki ishlar organi, kompyuter texnologiyalari, aloqa, axborotlashtirish, tizim, profilaktika inspektori, "Smart mahalla"

Аннотация: В настоящее время информационные и коммуникационные технологии используются во всех сферах жизни, в том числе и в деятельности правоохранительных органов. Развитие практики борьбы с преступностью, обеспечения безопасности и общественного порядка – успешное выполнение задач, стоящих перед органами внутренних дел, свидетельствует о том, что в большинстве случаев их деятельность определяется уровнем информационно-аналитической обеспеченности.

Ключевые слова: инфокоммуникации, информационные технологии, орган внутренних дел, компьютерные технологии, связь, информатизация, система, инспектор по профилактике, "смарт Махалла"

Annotation: Currently, information and communication technologies are used in all spheres of life, including in the activities of law enforcement agencies. The development of the practice of combating crime, ensuring security and public order – the successful fulfillment of the tasks facing the internal affairs bodies indicates that in most cases their activities are determined by the level of information and analytical security.

Keywords: infocommunications, information technologies, internal affairs body, computer technologies, communication, informatization, system, prevention inspector, "smart Mahalla"

Bugungi kunda Axborot texnologiyalari sohasi respublikamizning rivojlanishida muhim o'rin tutib kelmoqda. O'tgan yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yurtimizda axborot texnologiyalarini keng joriy qilish va rivojlantirish borasida olib borgan siyosati hozirgi kunga kelib o'z natijalarini

ko'rsatmoqda. Iqtisodiy raqamlarga nazar tashlanadigan bo'lsa, o'tgan yildagi natijalarni ijobiy deb baholasa bo'ladi. Axborot Komunikatsiya Texnologiyalari sohasida ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmi 10,6 trillion so'mgacha yetib, 104% o'sishini ko'rsatdi. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari esa 176 million dollargacha, ya'ni 130 foizgacha o'sdi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining izchil rivojlanishi Ichki Ishlar Organlariga keng tatbiq etilishi yana bir muhim omillaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Ichki Ishlar Organi faoliyatiga avtomatlashtirishni joriy qilish, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish jarayonidagi katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlar yukini yengillashtirishga yordam beradi. Bu o'z o'rnida, ish jarayonida vaqtning tejallishiga, vazifalarni bajarish sifati va tezkorligining oshishiga olib keladi.

Axborot tizimlarini joriy eyish bo'yicha mamlakatimizda ma'muriy tartibotlardan o'tishni soddalashtirish, aholi turmushi sifatini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan elektron hukumatni, shu jumladan davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini modernizatsiya qilish va rivojlantirish borasida izchil choralar ko'rilmogda. Ichki ishlar organlari tarkibida axborot texnologiyalaridan foydalanish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan malakali xodimlarga ega bo'linmalar tashkil qilindi, axborot texnologiyalaridan foydalanish davlat dasturlarini va loyihalarini idoralararo muvofiqlashtirish tizimining asosi shakllantirilmoqda.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayonlarini boshqarish sifati oshib bormogda. Radio tizimli aloqa vositasi hozirda yurtimizda qo'llanilayotgan BODY camera, profilaktika inspektorlari foydalanadigan planshetdagi ayrim imkoniyatlar va GPS tizimi, mobil telefonimizdagi SMS, telefon va xabarlar almashinuv funksiyasini, qo'riqlash xizmatiga ulangan signalizatsiya tizimining faolligi funksiyalarini qamrab oladi. Ushbu qurilmani yurtimizda joriy etish orqali xodimlarimizning ish samaradorligini yanada oshirgan bo'lamiz. Respublikada aloqa kommunikatsiyalari va axborot uzatish tuzilmalarining shisha-tolali aloqa tarmoqlariga o'tilganligi ish unimdorligi bir muncha yaxshilaydi. Shisha-tolali aloqa tarmoqlaridan foydalanish qulayligi shundan iboratki ular yordamida ma'lumotlarni uzatish tezligi va hajmi yuqori bo'ladi hamda iqtisodiy jihatdan ham maqbuldir Bunday aloqa tarmoqlari orqali ichki ishlar idoralarida ma'lumot uzatishning ko'plab turlari yo'lga qo'yilganligi, xususan, raqamli telefon, video va boshqa signallarni uzatish imkoniyatlari mavjud. Tizimda joriy etilayotgan zamonaviy qurilmalar shisha-tolali aloqa tarmoqlarining barcha imkoniyatlaridan to'liq foydalanadi. Jumladan, Internet tarmog'i, raqamli, modimli telefon tarmoqlari, GSM uyali aloqa kanallari hamda ultra-qisqa to'lqinli radio tarmoqlarida ishlaydi. Bularga sarflangan xarajatlar qisqa muddatlarda qoplanishi ham katta ahamiyatga ega. Respublika bo'yicha 140 ta avtomatlashtirilgan markaziy kuzatuv va xabar uzatish tarmog'ini yaratish rejalashtirilganligi. Bulardan 15

tasi monitoring markazi va 125 tasi texnik qo'riqlash punktlaridir. Ichki ishlar organlari innovatsion raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya tizimlari bilan muntazam ta'minlanmoqda. Birgina 2017-2020 yillarda shaxsiy tarkib uchun 45 ta yangi xizmat ob'ekti qurilib, foydalanishga topshirilgani bu fikrni tasdiqlaydi. Ana shunday islohotlarimiz natijasida ichki ishlar organlari zamonaviy texnika bilan ta'minlangan, xalqchil va ochiq, kriminogen vaziyatni mustahkam va ishonchli nazorat qila oladigan, mobil va ixcham tuzilmalarga aylanib bormoqda. Eng muhimi, soha xodimlarining ma'naviy qiyofasi, jamiyatimizdagi obro'-e'tibori yuksalib bormoqda. Hozirda Profilaktika Inspektoriga masofadan turib murojat yuborish imkoniyat borligi, xattoki murojaatni ko'rib chiqish jarayonini kuzatib borish mumkin. Buning imkonini beruvchi "Smart Mahalla" axborot dasturi yaratildi. Ushbu axborot dasturi dastlab sinov tariqasida Azimkent mahallasida isga tushirildi. Bu ilova orqali fuqarolar real vaqt davomiyligida sektorlarga va Profilaktika Inspektorlariga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilishlari mumkin. "Smart Mahalla" ilovasi yordamida Aholini mahaladagi va boshqa yangiliklardan xabardor qilish Mahalla Raisi va Profilaktika Inspektori faoliyatini baholash, hududda sodir etilgan jinoyatchilik, huquqbuzarlik yuzasidan jamoatchilik fikrini bilish uni tahlil qilish kabi imkoniyatlari mavjud. Buygungi kunda Ichki Ishlar tizimida mobil ilova orqali murojaat qilish tartibi mavjud bo'lmaganligi sababli sohada "Smart Mahalla" mobili axborot tizimi doirasida fuqarolarga masofadan turib elektron hizmatlarni ko'rsatish nazarda tutilgan.

Jamiyat hayoti uchun katta tahdid bo'lgan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm, ekstremizm, korrupsiya, odam savdosi va narkotrafikaga qarshi kurashda zamonaviy axborot texnologiyalari ilmiy-texnika yutuqlaridan va ilg'or texnologiyalardan samarali foydalangan holda amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lex.uz (normativ hujjatlar bazasi)
2. www.google.com (butun jahon qidiruv tizimi)
3. ede.uz (milliy ta'lim internet portal)
4. <https://uz.wikipedia.org/> (Qidiruv resurslar bazasi)